

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

CHULLIYEV SUHROB RABBONAQULOVICH

**INNOVATSION JARAYONLAR VA VENCHUR KAPITALI
O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Chulliyev Suhrob Rabbonaqlulovich

Innovatsion jarayonlar va venchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni
oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish..... 3

Чуллийев Сухроб Раббонакулович

Совершенствование теоретических основ повышение взаимосвязь
инновационных процессов и венчурного капитала..... 28

Chulliyev Suhrob Rabbonaqlulovich

Improving the theoretical foundations of increasing the connection between
innovation processes and venture capital 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

CHULLIYEV SUHROB RABBONAQULOVICH

**INNOVATSION JARAYONLAR VA VENCHUR KAPITALI
O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.PhD/Iqt625 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Murodova Nodira Qulliyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Vaxabov Abduraxim Vasiqovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Asatullayev Xurshid Sunatullayevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11-raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil __ kuni, soat 14.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy, Tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24; faks: (99871) 246-90-80, e-mail: rector@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy, Tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24; faks: (99871) 246-90-80, ye-mail: rector@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil __ kuni tarqatildi.
(2024 yil __dagi __-raqamli reestr bayonnomasi).

H.P.Abulqosimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Q.Q.Mambetjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.V. Vaxabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv tendensiyalarining keskinlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hamda ilm sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan tovar va xizmatlar diversifikatsiyasining kengayishi innovatsion jarayonlarni moliyalashtirishning turli xil muqobil variantlarini qo‘llash tendensiyalarini kuchaytirmoqda. “Innovatsion salohiyatni oshirish bo‘yicha jahonda yetakchi 10 ta mamlakat, ya‘ni, Shveysariya, Niderlandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Singapur, AQSH, Finlyandiya, Daniya, Germaniya va Irlandiyalar yiliga YaIMga nisbatan o‘rtacha 2,5-4,0 foiz atrofida mablag‘lar ajratmoqda”¹. Bugungi kunda jahon bozorida raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida innovatsion faollik darajasini oshirishga venchur kapitalidan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsion salohiyat, xususan, ilmiy-texnik, innovatsion infratuzilma va malakali ishchi kuchi salohiyatini oshirish hamda ulardan samarali foydalanish masalasi global muammo darajasida o‘rganilmoqda. Jumladan, intellektual salohiyatni nostandart ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e‘tiborga olgan holda oshirish, infratuzilmaviy faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish, milliy innovatsion tizimning samarali amal qilish mexanizmlarini xususiy va davlat tuzilmalari integratsiyasini samarali uyg‘unlashtirish hamda innovatsion salohiyatni diversifikatsiya qilish orqali takomillashtirish kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyot sohalariga innovatsiyalarni keng joriy qilish, innovatsion faoliyat sub‘yektlari, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, texnoparklar, transfer markazlari, innovatsion klasterlar, venchur tashkilotlar, biznes-inkubatorlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakatda “...innovatsion salohiyat va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun respublikada venchur jamg‘armalari faoliyatini takomillashtirish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish”², “...global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar reytingning TOP-50 mamlakatlari qatoriga kirish”³ vazifalar belgilab berilgan. Bu borada milliy innovatsion salohiyatni baholash mexanizmini nazariy-uslubiy jihatdan takomillashtirish, innovatsion klasterlarni davlat-xususiy sherikchilik asosida samarali shakllantirish, xususiy sektor va hududlarning innovatsion faoliyatini moliyaviy vositalar asosida rag‘batlantirish, ularni amalga oshirish mexanizmini samarali tashkil etish kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

¹<https://www.vestifinance.ru/articles/104063>; https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2018-chapter3.pdf

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018 yil 24 noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-son “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3899-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3855-son “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 3 noyabrdagi 684-sonli “«UZVC» milliy venchur fondi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 17 maydagi 414-son “Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”, 2021 yil 27 avgustdagi 545-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakat innovatsion jarayonlar va venchur kapitalidan foydalanish darajasini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari xorij olimlari tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan.⁴ Jumladan, innovatsion jarayon o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar J.Shumpetter, Z.Glenn, kichik biznes sub’yektlarining innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlari P.Drukker, S.Friman, milliy innovatsion tizimni shakllantirish muammolari B.Landvall, R.Nelson va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. S.Kortum, G.Stivenson, Dj.Timmons, U.Baygreyv va boshqa bir qator olimlar esa iqtisodiyotning

4 Schumpeter J. Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung – Berlin: Duncker & Humblot, 1912.; Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.; Freeman C. Technology and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter Publishers, 1987.; Lundvall B. (ed.). National Innovation Systems: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers, 1992.; Nelson R. (ed.). National Innovation Systems. A Comparative Analysis. – New York/Oxford: Oxford University Press, 1993. Kortum S., Lerner J. Assessing the Contribution of Venture Capital to Innovation // RAND Journal of Economics. 2000. Vol. 31. No. 4. P. 674–692.; Stevenson H. H., Muzyka D. F., Timmons J. A. Venture Capital in a New Era: A Simulation of the Impact of Change in Investment Patterns // Frontiers of Entrepreneurship Research / ed. by R. Ronstadt et al. Wellesley, MA.: Babson College, 1986. P. 380–403.; Timmons J. A., Bygrave W. D. Venture Capital’s Role in Financing Innovation for Economic Growth // Journal of Business Venturing. 1986. Vol. 1. P. 161–176.

innovatsion rivojlanishida yuqori risk darajasi bilan bog'liq bo'lgan venchur kapitali qo'yilmalarini baholashning empirik tahlilini amalga oshirishgan. Venchur kapitali shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq muammolarni Z.Blok, Ch.Berri, D.Gledstoun, L.Gledstoun, P.Gompers, S.Kortum, K.Kempbell, D.Lerner, T.Meyer, T.Perkins⁵ kabi olimlar o'rganishgan.

Innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqot ishlari MDH mamlakatlaridagi qator olimlarning izlanishlarida ma'lum darajada tadqiq etilgan.⁶ Jumladan, innovatsion faoliyatni tahlil qilish va baholash N.Kondratyev, V.Marsinkevich, I.Soboleva, ilmiy-texnik va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari B.Mochalov, L.Lopatnikov, J.Petrovskaya, L.Davidova, S.Markina, venchur kapitalining innovatsion jarayonlarga ta'sirini Yu.Ammosov, I.Rodionov, S.Yagudin, I.Komarova, M.Sabirov, E.Valeyev ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan mamlakat innovatsion faoliyatini rivojlantirish hamda undan foydalanish darajasini oshirishning umumiy jihatlarini muayyan darajada o'rganilgan va ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar davom etmoqda.⁷

⁵ Block Z., MacMillan J. Corporate Venturing. Boston, 1995.-3406; Barry C, Muscarella C, Peavy J., Vetsuypens M. The Role of venture capital in the creation of public companies: Evidence from going public process/ Journal of Financial Economics, 1990, 27,6.447-471; Gladstone D., Gladstone L. Venture Capital Investing: The Complete Handbook for Investing in Private Businesses for Outstanding Profits/Financial Times Prentice Hall, 2003.-4746; Gompers P., Lerner J. The Venture Capital Cycle, MIT Press, 2006.-5816; Kortum S., Lerner J. Assessing the contribution of venture capital to innovation. RAND Journal of economics, 2000, 31(4),6.674-692.; Кэмпбелл К. Венчурный бизнес: новые подходы.-М.:Альпина Бизнес Букс, 2004.-4266; Meyer T. Mathonet P.-Y. Beyond the J curve:Managing a Portfolio of Venture Capital and Private Equity Funds/The Wiley Finance Series, 2005. - 3846 ; Perkins T., Perkins M. The Internet Bubble,1st ed. Harper Business, 1999.-283 б.

⁶ Кондратьев Н. Большие циклы конъюнктуры // Вопросы конъюнктуры. Том 1, Выпуск 1, 1925.; Марцинкевич В.И., Соболева И.В. Экономика человека: Учеб.пособие для вузов. М.: Аспект Пресс, 1995. - с.51.; Мочалов Б.М. Экономический потенциал развития капитализма. // Монография. -М.: Экономика, 1982. -с.7.; Лопатников Л.И. Экономико-математический словарь // Словарь современной экономической науки. Изд.4-е, -М.: изд-во "АВФ". 1996. -с.621.; Петровская Ж.А. Влияние инновационного потенциала на экономический рост. // Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Саратов. 2009. -161с.; Давыдова Л.В., Маркина С.А. Инвестиционный потенциал как основа экономического роста // Финансы и кредит. 2007. № 31 с.271.; Аммосов Ю.П. Венчурный капитализм: от истоков до современности. СПб.: РАВИ, 2004. - 408 с.; Родионов И.И. Венчурный капитал. - ГУ ВШЭ, 2005. - С.40.; Ягудин С. Ю. Венчурное предпринимательство. Франчайзинг. - СПб.: Питер, 2011. - 256 С.; Комарова И.П. Венчурный капитал как фактор инновационного развития трансформирующейся экономики. // Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва. 2009. С 172.; Сабилов М.Р. Венчурный капитал, как фактор инновационной модернизации экономики.// Вестник экономики, права и социологии, 2012, № 2. С. 76-79.; Валеев Э.Р. Венчурный капитал в модернизующейся экономике. //Автореферат Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Казань. 2012.

⁷ G'ulomov S.S. Innovatsion iqtisodiyotda yangi terminologiya: "aqli ta'lim". // Ilm-fan va innovatsion rivojlanish. №3. 2018. 17-22-б. Zaynutdinov Sh.N. Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2011. № 1.; Vaxobov A. Barqaror iqtisodiy o'sish omillari // Bozor, pul va kredit. - T.: 6/2011. 38-42 б.; Вахабов А.В., Разыкова Г.Х. Модернизация экономики. Уч. Пособие. -Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. -263с.; Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innoovatsion jarayonlarni strategic boshqarish uslubiyotini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. - T.: TDIU, 2021. - 62 б.; Nurumbetov R. Innovatsion salohiyat – zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish poydevori. BIZNES-EKSPERT. 2017. №5. 46-56 б.; Shokirova F.N. Innovatsiyalar asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'milashning ayrim nazariy jihatlarini. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2018. №5.; Yo'ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. -T.: TDIU. 2011. -438 б.; Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. Monografiya. -T.: Fan. 2007. -162 б.; Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi.

Jumladan, mamlakat innovatsion faoliyatini alohida tarmoq, soha va hududlar kesimida baholash hamda intellektual salohiyatni oshirish muammolari S.S.G‘ulomov, Sh.N.Zaynutdinov, A.V.Vaxabov, N.M.Rasulov innovatsiyalarni investitsiyalash va iqtisodiy o‘rnatishning sifat ko‘rsatkichlari hamda innovatsion jarayon o‘rtasidagi mutanosiblik R.Nurumbetov, F.B.Shakirova, D.Shadiyeva, innovatsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish N.Q.Yo‘ldoshev, Sh.A.Mirsaidova, B.I.Kamiljanov, milliy iqtisodiyot innovatsion jarayonlaridan samarali foydalanishning umumnazariy jihatlarini B.Yu.Xodiyev, T.T.Jo‘rayev, X.P.Abulqosimov, N.M.Maxmudovlarning tadqiqot ishlarda bayon etilgan.

Biroq, amalga oshirilgan tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar asosan innovatsiyalarning iqtisodiy mazmuni, innovatsion salohiyatni oshirish, unga ta‘sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va shu asosda prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan. Ular ilmiy tadqiqotlarida innovatsion jarayonlarda ventur kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari ikkinchi darajali muammo sifatida qolib ketgan. Mazkur holat muammoning dolzarblik darajasi yanada oshishiga va ushbu mavzuni tanlashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasini hamda “KA-2-003 raqamli “O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy iqtisodiyotda innovatsion jarayonlar va ventur kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“ventur kapitali” kategoriyasining mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etish va ularga takomillashgan ta‘rif shakllantirish;

innovatsion jarayonlar va unga ventur kapitalining ta‘sirini oshirishga qaratilgan turli xil ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish;

innovatsion jarayonlar va ventur kapitalining mazmuni, tarkibi, amal qilish tamoyillari va uning o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganish;

respublikada innovatsion jarayonlarni jadallashtirishda ventur kapitalidan foydalanish holatini tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish;

innovatsion jarayonlarda ventur kapitalidan samarali foydalanishning xorij tajribalari va ularni O‘zbekistonda qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

respublikada ventur kapitalining innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga ta‘sirini oshirish va takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

Darslik. -T.: “Barkamol avlod media”. 2017. -784 b.; Jo‘rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya”. 2017. -649 b.; Abulqosimov X.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. -T.: Akademiya, 2011. -188 b.; Maxmudov N.M. Iqtisodiy o‘rnatish modellari va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish yo‘llari // Iqtisod va moliya. - T.: 2016. №3. 2-8 b.

Tadqiqotning ob'yektini O'zbekiston Respublikasidagi innovatsion jarayonlar va venchur kompaniyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini innovatsion jarayonlar va venchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni takomillashtirish jarayonlarida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida dialektik, tarixiylik va mantiqiylik, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellash, statistik, korrelyatsion va regression tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

innovatsion jarayonlar bilan venchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni respublikada kichik innovatsion korxonalarni tashkil etishning dastlabki bosqichida venchur fondlari mablag'larini faol jalb etish va ularni keyinchalik yirik innovatsion klasterlarga aylantirish orqali takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, ilmiy va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga tematik loyihalar bo'yicha davlat buyurtmasi hajmini venchurli moliyalashtirish asosida ko'paytirish va sohada xususiy sektor faolligini jadallashtirish orqali erishish taklifi ishlab chiqilgan;

innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini ular tomonidan yaratilayotgan yirik hajmli ilmiy-tadqiqot hamda innovatsion loyihalarni davlat grantlari va venchur kapitalini birlashtirish asosida moliyalashtirish orqali takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi nazariy jihatdan asoslangan;

uslubiy yondashuvga ko'ra, innovatsion g'oya va loyihalarni investitsiyalash samaradorligini oshirishga venchur fondlarini paychilik (ulushli) asosida tashkil etish, keyinchalik, ya'ni, innovatsion loyiha amalga oshirilgandan so'ng ishtirokchilar ulushini strategik investorlarga sotish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mamlakatda tashkil qilinayotgan venchur kompaniyalari kapitali tarkibini optimallashtirishga erishish bo'yicha yangicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

venchur kapitali tarkibini ishlab chiqarish, moliyaviy, texnologik va axborot-ta'lim unsurlarini kiritish asosida takomillashtirish orqali uning innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sirini oshirishning maqsadga muvofiqligi nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan;

respublikada innovatsion jarayonlar bilan venchur kapitali o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan;

ilmiy va innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish mexanizmi tematik loyihalar bo'yicha davlat buyurtmasi hajmini ko'paytirish va uni venchurli moliyalashtirish asosida xususiy sektor faolligini jadallashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini texnopark va innovatsion markazlarda yaratilayotgan ilmiy-tadqiqot hamda

innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sherikligi asosida moliyalashtirish mexanizmi takomillashtirilgan;

innovatsion jarayonlarni investitsiyalash samaradorligini oshirishga respublikada kichik innovatsion korxonalar va innovatsion klasterlarni davlat-xususiy sherikchiligi negizida «pinotsitoz» mexanizmidan foydalanish tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vaziligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlaridan olingani hamda xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan innovatsion salohiyatdan foydalanish darajasini oshirishga mo'ljallangan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida «Makroiqtisodiyot», «O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi», «Innovatsion menejment», «Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari», «Iqtisodiyot nazariyasi» fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion jarayonlar va venchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

innovatsion jarayonlar bilan venchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni respublikada kichik innovatsion korxonalarni tashkil etishning dastlabki bosqichida venchur fondlari mablag'larini faol jalb etish va ularni keyinchalik yirik innovatsion klasterlarga aylantirish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi 4-bobi, 4.1-bandi, 3-xatboshini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 13 iyuldagi 01/00-04/08-6221 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi mamlakatda kichik innovatsion korxonalar hamda innovatsion klasterlarning ko'payishiga xizmat qiladi;

ilmiy va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga tematik loyihalar bo'yicha davlat buyurtmasi hajmini venchurli moliyalashtirish asosida ko'paytirish va sohada xususiy sektor faolligini jadallashtirish orqali erishish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 avgustdagi 545-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 1-ilovasining 10-bandi Ye-qismining 9-xatboshisini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 13 iyuldagi 01/00-04/08-6221 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif respublikada ilmiy va innovatsion jarayonlar bilan

shug'ullanuvchi sub'yektlar sonining oshishi, yuqori texnologiyali tovar va xizmatlar diversifikatsiyasining kengayishi, innovatsiyalarni moliyalashtirish samaradorligining oshishiga xizmat qilgan;

innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini ular tomonidan yaratilayotgan ilmiy-tadqiqot hamda innovatsion loyihalarni davlat grantlari va ventur kapitalini birlashtirish asosida moliyalashtirish orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonining 1-ilovasi 2-bobining 3-xatboshisini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 13 iyuldagi 01/00-04/08-6221 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida mamlakatda iqtisodiyotning xususiy sektorida innovatsion tadbirkorlik sub'yektlari, innovatsion texnoparklar va markazlar sonining oshishiga erishiladi;

innovatsion g'oya va loyihalarni investitsiyalash samaradorligini oshirishga ventur fondlarini paychilik (ulushli) asosida tashkil etish, keyinchalik, ya'ni, innovatsion loyiha amalga oshirilgandan so'ng ishtirokchilar ulushini strategik investorlarga sotish orqali erishish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 maydagi 414-son "Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarorining 1-ilovasi 4-bob, 18-bandining 2-xatboshisini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 13 iyuldagi 01/00-04/08-6221 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif mamlakatda innovatsion g'oyalar va loyihalarni investitsiyalash samaradorligining oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 9 dan ortiq respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 155 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining

amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion jarayonlar va ventchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida innovatsion jarayonlar va ventchur kapitali to'g'risidagi nazariy qarashlar evolyutsiyasi, innovatsion rivojlanish bilan ventchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlik va unga ta'sir qiluvchi omillar, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda ventchur kapitalidan samarali foydalanishning xorij tajribalari yoritilgan.

Mazkur tadqiqot ishida innovatsion jarayonlar va ventchur kapitali to'g'risidagi nazariy qarashlar evolyutsiyasi o'rganilgan. Innovatsiya va ventchur kapitali bo'yicha nazariyalarga oid iqtisodchi olimlarning fikr va yondashuvlari tahlil qilingan. Muallif ventchur kapitaliga iqtisodiy kategoriya sifatida ta'riflarni ajratib ko'rsatgan (1-jadval).

1-jadval

Venchur kapitaliga iqtisodiy kategoriya sifatida berilgan ta'riflarning qiyosiy tahlil⁸

Mualliflar, tashkilotlar	“Venchur kapitali” mohiyatining talqin qilinishi
Drucker P.F. venchur kapitali bu -	innovatsion loyihalarga kiritilgan aksiyalar evaziga riskli qo'yilmalar, xususan, kompaniyaning innovatsion rivojlanishiga kiritilgan kapital.
Samuel Kortum, Josh Lerner venchur kapitali bu -	kompaniya rivojlanishining ilk bosqichlarida kiritiladigan yuqori riskli kapital.
Paul A. Gompers venchur kapitali bu -	o'zida odatda aksiyalar va nou-xau boshqaruvi shaklidagi kapital bo'lib, u jismoniy shaxslar va muassasalar tomonidan fond birjasida ro'yxatga olinmagan va yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lgan kichik va o'rta korxonalarga kiritiladi.
Ammosov Yu.P. venchur kapitali bu -	ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarini yangi mahsulot yoki xizmatlarning raqobatda yetakchiga aylantiradigan kompaniyalarning “bozorga yorib kirishi” uchun resurslar manbaidir.
Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. venchur kapitali bu -	tashqi investor tomonidan yangi, o'sib borayotgan va bozorda o'z o'rnini egallashga harakat qilayotgan kompaniyalarni moliyalashtirish uchun xususiy qo'yilmalarni amalga oshirishda foydalaniladigan kapital.
Mamedov H., Muminov N., Umarov A., Ismailov A.	benihoya yuqori tavakkalchilar xatari darajasidagi kapital sarflanishi mumkin bo'lgan pullar.

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

venchur kapitali bu -	
O'zbekiston venchur kapitali assotsiatsiyasi venchur kapitali bu -	investor tomonidan kompaniya kapitalida qo'lga kiritilgan ulush evaziga uzoq muddatli istiqbolda yuqori daromad olishga yo'naltirilgan yuqori riskli innovatsion loyihaga kiritilgan mablag'.
Muallif fikricha venchur kapitali bu -	bu yuqori risk darajasiga ega iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni jadallashtiruvchi, tez o'sish sur'atiga ega kichik yuqori texnologiyali kompaniyalarga yo'naltirilgan kapitaldir.

Muallif mazkur tadqiqot ishida venchur kapitalining manbalari, funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatgan holda uning tarkibiga ishlab chiqarish, moliyaviy, texnologik va axborot ta'lim unsurlarini kiritgan (1-rasm).




1-rasm. Venchur kapitalining funksiyalari, xususiyatlari, manbalari va tarkibi⁹.

Muallif fikricha, venchur kapitali uchta funksional shaklda mavjud bo'ladi: muomala bosqichida venchur kapitali pul venchur kapitali va tovar venchur kapitali shaklida, ishlab chiqarish bosqichida esa samarali venchur kapitali ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Venchur kapitali aylanishining formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

⁹ Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Venchur kapitali aylanishining formulasi.¹⁰

Yuqorida sanab oʻtilgan funksiyalarni venchur kapitali oʻzining aylanish jarayonida amalga oshiradi. Venchur kapitalining aylanishi deganda venchur kapitalining uchta bosqich (shundan ikkitasi aylanish bosqichiga: $P - T$ va $T' - P'$, va bitta ishlab chiqarish bosqichi)dan oʻtishi tushuniladi. Bu bosqichlardan oʻtish davomida venchur kapitali toʻliq aylanishni amalga oshiradi, boshlangʻich shaklga qaytib uchta shaklni qabul qiladi va tark etadi.

Dissertatsiya ishining “Oʻzbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda venchur kapitalining oʻrni va rivojlanish tendensiyalari” deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada venchur kapitali shakllanishi va uning institutsional asoslari oʻrganilib, innovatsion jarayonlarni jadallashtirishda venchur kapitalidan foydalanish holati va uning qiyosiy tahlili hamda innovatsion jarayonlar bilan venchur kapitali oʻrtasidagi bogʻliqlik darajasi va unga taʼsir etuvchi omillar tahlil qilingan.

Mamlakatning innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtishi investitsiyalarni moliyalashtirishning yangi usullarini qoʻllashni talab etadi. Shunday usullardan biri rivojlangan mamlakatlarda yetarlicha muvaffaqiyatli qoʻllanilayotgan venchur kapitali hisobiga moliyalashtirish hisoblanadi.


Ilmiy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalarni keng jalb etish, xususiy sektor faolligini oshirish va venchurga asoslangan moliyalashtirishni rivojlantirish uchun avvalo, xususiy sektorning bu sohadagi bilim va xabardorligini oshirish maqsadga muvofiq boʻladi. Chunki, ilmiy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektor tomonidan venchur kapitali kiritilishi va bu loyihalarni moliyalashtirishdan qanday manfaat olishini bilishi, ularni kutayotgan riskdan xabardor boʻlishi va moliyalashtirish mexanizmlari toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlishi ularning investitsiya kiritishga qiziqishini orttiradi.

Bugungi kunda Respublikada iqtisodiyotning ilm-fan va innovatsiyalar boʻyicha biotexnologiya, qayta tiklanuvchi energetika, chorvachilikni rivojlantirish, kon-metallurgiya sanoati, tuproq unumdorligini oshirish va sunʼiy intellekt sohalarini rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlar etib belgilangan. Ushbu

¹⁰ Muallif ishlanmasi.


sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy va innovatsion loyihalarni davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirish ko‘lamini oshirishda budget mablag‘larining cheklanganligini hisobga olgan holda ularni venchur kapitaliga asoslangan moliyalashtirishda xususiy sektorni faollashtirish maqsadga muvofiq.

Ilm-fan va innovatsiyalarga yo‘naltirilgan sarf-xarajatlar 2017 yildan buyon sezilarli darajada ortdi. Ilmiy va innovatsion faoliyat bo‘yicha dastur va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat budgetidan jami 1 488,3 mlrd. so‘m mablag‘ ajratildi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va innovatsiyalarga yo‘naltirilgan sarf-xarajatlar dinamikasi (2018-2021 yillar), mlrd. so‘m.


Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalari – ilmiy faoliyatning ilg‘or yo‘nalishlari, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ehtiyojlari va muammolaridan kelib chiqqan holda, davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari ehtiyojlari asosida ishlab chiqiladigan, moliyaviy hajmi ko‘rsatilgan, mavzu doirasida olinadigan yakuniy mahsuloti aniq aks ettirilgan, muntazam ravishda e‘lon qilinadigan, tanlov asosida moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalaridir.



5-rasm. Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalarining turlari.

Tematik, maqsadli va tashabbuskor loyihalar fundamental, amaliy, innovatsion yoki tajriba-konstruktorlik shaklida bo'lishi mumkin.

2019-2021 yillarda ilmiy-innovatsion faoliyat bo'yicha dastur va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 1 290,3 mlrd. so'm ajratildi. (4-rasm)



4-rasm. 2019-2021 yillarda davlat budjetidan ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlar (mlrd. so'm)

Innovatsion mahsulotlar, yangi ishlanmalar, materiallar va texnologiyalarni yaratish, joriy etish, ko'p miqdorda ishlab chiqarish, tarqatish hamda ularni tijoratlashtirish masalalari ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish natijasida hal qilinishi mazkur loyihalarni davlat buyurtmasi asosida, iqtisodiyotning real sektorlarida mavjud muammo, hal qilinishi lozim bo'lgan, ilmiy, amaliy va texnologik yechimlar uchun maqsadli va tizimlashtirilgan mexanizm tashkil qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Tadqiqot doirasida milliy iqtisodiyotda tadqiqotlar va ishlanmalarni investitsion ta'minlashning asosiy manbalarini aniqlab olish uchun biz har bir manbaning O'zbekistonda 2012-2022 yillardagi ulushini aniqlab oldik (2-jadval).

2- jadval

O'zbekiston tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ITTKIning investitsiyalash manbalari tuzilishi%¹¹

	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Jami investitsiyalar, Shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
byudjet mablag'lari	56,9	58,8	57,8	58,7	57,3	56,1	55,1	66,3	63,6	63,4	63,2
Byudjetdan tashqari	2,3	1,4	3,9	4,3	3,8	2,7	2,9	4,2	3,0	3,2	3,1

¹¹ Ўзбекистонда илм-фан ва инновацион фаолият. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Статистик тўплам. – Тошкент 2022. -Б 51.

fondlar mablag'lari											
Tashkilotlarning o'z mablag'lari	16,8	19,8	21,6	22,9	24,5	29,4	35,6	25,7	24,2	25,7	25,5
Buyurtmachilarning mablag'lari	23,4	19,1	15,9	13	13,7	11,2	6,1	3,4	9,2	7,4	8
Xorijiy investorlar mablag'lari	0,6	0,9	0,8	1,2	0,7	0,6	0,3	0,4	0,1	0,3	0,2


Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki tahlil qilinayotgan davrda tadqiqotlar va ishlanmalarni investitsion qo'llab-quvvatlashning asosiy manbasi byudjet mablag'lari bo'lib, so'nggi yillarda uning ulushi qo'yilmalar umumiy hajmining 55-65 foizini tashkil etmoqda. Budjetdan tashqari fondlar va xorijiy investorlarning ITTKIni qo'llab-quvvatlashdagi ulushi sezilarli darajada bo'lmay, umumiy qo'yilmalarning 5 foizdan ko'p bo'lmagan qismini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda innovatsion jarayonlar bilan venchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni takomillashtirish yo'nalishlari”** nomli uchinchi bobida venchur kapitali va innovatsion jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni davlat tomonidan tartibga solish usullarini takomillashtirish orqali, O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik va venchur fondlarini qo'llab-quvvatlash hamda venchur kapitalining innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga ta'sirini oshirish ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sheriklikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg'armalari mablag'larini jalb qilish hamda tadbirkorlikka zarur ko'nikmalarni texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklari orqali kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni talab etmoqda.


Milliy iqtisodiyotga investitsiya jalb qilish, xususan, xorijiy kapitalni jalb etish dolzarb masala hisoblanadi. Har qanday hududda investitsion faoliyatni yo'lga qo'yish uchun esa, o'sha hududda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay infrastrukturani tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammoni maxsus iqtisodiy hududlar (MIH), texnoparklar, industrial parklar, texnologiya transferi, innovatsion markazlarini ochish hamda davlat-xususiy sheriklikda amalga oshirish orqali bartaraf etish mumkin bo'ladi.

Startup loyihalarni moliyalashtirish natijasida 150 dan ortiq kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda ularning jami ishlab chiqarish quvvati 138,0 mlrd. so'mdan ortiq. Ushbu korxonalarda 200 dan ortiq yangi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishi hamda xizmatlar ko'rsatilish yo'lga qo'yilgan.



6-rasm. 2018-2022 yillarda Respublikada mavjud startup loyihalar soni.

Innovatsion faoliyat hamda startup ekotizimi uchun zamonaviy infratuzilmalar 2017 yil holatiga respublika hududlarida ilmiy ishlanmalar natijalarini amaliyotga joriy qilish, mavjud ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha yagona maydonlar mavjud bo'lmagan.



7-rasm. 2018-2022 yillarda Respublikada mavjud innovatsion infratuzilmalar soni.

Innovatsion infratuzilma sub'yektlari tarmog'ini shakllantirish orqali startup tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Mamlakatimizda innovatsion infratuzilma mustahkamlanib, 11 ta innovatsion markaz, 8 ta texnopark hamda inkubatsiya va akselaratsiya markazlari, innovatsion loyihalarni sinovdan o'tkazish bo'yicha tajriba maydonchalari yaratildi.

Yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy-texnologik va innovatsiya tadbirkorligining barqaror rivojlanishini ta'minlash, kichik innovatsiya korxonalarini tashkil etish, milliy va xorijiy bozorlarda raqobatdosh, ilmiy-hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishni va yetkazib berishni yo'lga qo'yish uchun qulay muhit shakllantirish maqsadida co'nggi 5 yil ichida respublikamizda 19 ta innovatsion infratuzilmalar (texnopark, biznes-inkubator, biznes-akselerator, kovorking markazi kabi) tashkil etildi.

2018-2021 yillar mobaynida Yashnobod innovatsiya texnoparki rezidentlari soni 57 taga yetdi, 1107 ta yangi ish o'rinlari yaratildi (2019 yilda – 140 ta, 2020 yilda – 370 ta, 2021 yilda – 597 ta), 304,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, bunda eksport qilingan mahsulotlarning umumiy hajmi 4,9 mln. AQSh dollari (2019 yilda – 1,2 mln. AQSh dollari, 2020 yilda 1,4 mln. AQSh dollari, 2021 yilda – 2,3 mln. AQSh dollari) ni tashkil etdi. Umuman olganda Texnopark rezidentlari qariyb 9,4 mlrd. so'm (2019 yilda – 1,1 mlrd. so'm, 2020 yilda – 3,4 mlrd. so'm, 2021 yilda – 4,9 mlrd. so'm) investitsiya kiritdilar.



8-rasm. 2019-2021 yillarda Yashnobod innovatsiya texnoparki rezidentlari tomonidan kiritilgan investitsiya miqdori, mlrd. so'm.

Nazariy asoslardan bizga ma'lumki, texnoparklar venchur fondlarisiz rivojlana olmaydi. Bu ikki innovatsion infratuzilma parallel holda bir-birini to'ldirib, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantiradi.


- venchur kompaniyalari venchur moliyalashtirishni amalga oshirishga yo'naltirilgan yuridik shaxslar;

- venchur kompaniyalari va fondlarining kamida 51 foizi ta'sischi yoki ta'sischilarning o'z mablag'lari hisobidan tashkil etiladi;

- venchur kompaniyalari va fondlari umumiy mablag'ining 10 foizidan oshmagan miqdorini faqatgina bir loyihaga yo'naltirishi mumkin.

Jamiyatning rivojlanishi uchun quyidagi sub'ektning (davlat, mulkdor va tadbirkorlar) imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tashkil qilinishi, mamlakatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

DXSH ishtirokchilari ham qonun doirasida faoliyat ko'rsatish uchun, belgilangan tartibda birlashadi. Bularning o'zaro bog'liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (9-rasm).



9-rasm. Davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilarining o'zaro bog'liqligi.

Davlat va xususiy sheriklikdan faqat xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar) emas, balki davlat ham, aholi ham manfaatdordir. Xususan, investorlar o'zlarining mablag'ini investitsiya qilib, tegishli foyda olishga erishsa, tadbirkorlar o'zlarining tadbirkorlik faoliyati evaziga foyda oladilar. Davlatning manfaatdorligi, bevosita aholi manfaatdorligi bilan qo'shilib ketadi. Birinchidan, yangi ish joylari yaratilib, bandlik masalasida o'nglanishlar ro'y beradi, ikkinchidan, bularning daromadlari evaziga davlat budjetiga soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushishi ortadi. Uchinchidan, bevosita ishsizlarning ish o'rinlariga ega bo'lishi evaziga jamiyatimizda kambag'allik qisqaradi va aholining farovonligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Venchur fondi faoliyatning quyidagi asosiy turlarini amalga oshiradi:


yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini keyinchalik innovatsion faoliyatga investitsiya qo'yishdan foyda ko'rish maqsadida jamlash;

yangidan tashkil etilgan va mavjud tashkilotlarning ustav fondida ulushli ishtirok etish yo'li bilan, shuningdek, ushbu tashkilotlarga garov bilan ta'minlanmagan qarzlarni berish yo'li bilan innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni moliyalashtirish;

bo'sh turgan pul mablag'larini ichki bozorda yuqori likvidli moliyaviy vositalarga joylashtirish;

fond aksiyadori (ishtirokchisi) bo'lgan tashkilotlarni boshqarishda ishtirok etish.

Boshqaruvchi kompaniya investorlarning dastlabki majburiyatlarining 2,5%ini tashkil etuvchi yillik kompensatsiya oladi. Bundan tashqari boshqaruvchi kompaniya fond foydasining ma'lum foiziga umid qilishi mumkin (odatda 20%dan ko'p bo'lmagan miqdorda). Ushbu foizlarni to'lash faqat mablag'lardan foydalanish davridagi o'sishni hisobga olgan holda investorlarning fondga kiritgan mablag'lari qoplangandan keyingina amalga oshiriladi. (10-rasm)



10-Rasm. Venchur investitsiyaning harakati¹²

¹² Muallif ishlanmasi.

Fondlar loyihalarni saralashda turli xil me'zonlarga asoslanadi. Eng keng tarqalgan me'zonlarga quyidagilarni kiritish mumkin: o'ziga xoslik va loyiha yoki kompaniyaning innovatsion yo'nalishga egaligi; istiqbolli loyihalarni qo'llanganligi; professional boshqaruv jamoasining mavjudligi; kompaniyaning bozordagi liderlik uchun raqobatbardosh afzalliklarining mavjudligi; xalqaro standartlarga mosligi.

Jozibador loyihalarni saralashni amalga oshirgan fond kompaniya faoliyati moliyaviy ko'rsatkichlari ustidan qat'iy nazoratni amalga oshirgan holda bir yoki bir nechta investitsion loyihalarni boshqarish jarayoniga o'tadi.

Venchur sikli fondning investitsion bitimdan "chiqish" bosqichi bilan tugaydi, ya'ni aksiyalarning qayta pul mablag'lariga aylanishi yoki IPOni amalga oshirish ro'y beradi.

"Pinotsitoz" tushunchasi asosan tibbiyot, biologiya, qishloq xo'jaligi sohalarida qo'llaniladi va yunonchada ichaman, shimib olaman degan ma'noni anglatadi. Bunda suyuqlikning hujayra membranasi tomonidan qamrab olinishi va hujayraga so'rilishi orqali suyuqlikni plazmatik membrana qamrab olib, mayda tomchilar holida hujayra ichiga o'tkazadi.

Iqtisodiyotda ham "pinotsitoz" mexanizmini qo'llash yaxshi samara beradi, bunda ma'lum bir yo'nalishdagi kichik korxonalar tashkil qilinib, keyinchalik tarmoqqa kirib borib o'rab olinadi.

Startup va kichik innovatsion korxonalarni o'zaro manfaatdor «pinotsitoz» (qamrab olib, o'zlashtirish) mexanizmi asosida innovatsion klasterlar yoki yirik korxonalar tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish innovatsion va yuqori texnologiyali mahsulotlar bozorining kengayishiga olib keladi.

Ma'lumki, kichik korxonalar o'zlariga zarur mablag'larni qulay sharoitlarda olishi qiyin, chunki sarmoyadorlar bozorda o'z o'rnini topgan yirik kompaniyalar bilan ishlashni afzal ko'rishadi. Xususiyl sarmoyadorlar ham yosh yuqori texnologik kompaniyalarni moliyalashni unchalik xohlamaydi, chunki bu yuqori xatar bilan bog'liq. Davlat ta'sir etishning bevosita va bilvosita chora-tadbirlari yordamida xususiyl investitsiyalar bozorining ushbu "tor joylari"ga barham berishga ko'maklashishi mumkin.

Jahon tajribasiga ko'ra klasterlashtirish yetakchi davlatlar iqtisodiyotining taxminan 50 foizni qamrab olgan. AQShda 55 foizdan ortiq korxonalarning faoliyatlari klasterlar doirasida olib boriladi. Klasterlarning YaIMdagi ulushi esa 65 foizdan ortadi. Yevropa davlatlarida 2 mingdan ortiq klasterlar mavjud bo'lib, bu klasterlar innovatsion korxonalarni birlashtirish orqali bir tomondan samarador innovatsion faoliyatga erishayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi ish o'rinlari tashkil qilish bilan aholi bandligini 38 foizga ta'minlamoqda.

Muallif fikricha, fan sohasida yetakchilik qilayotgan rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni moliyalashtirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Bir tomondan, ilmiy tadqiqotlarni davlatning o'zi bevosita, ya'ni, to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirsa, ikkinchi tomondan, xususiyl sektorning ITTKI ga xarajatlarni oshirishni davlatdagi fiskal va monetar vositalari orqali rag'batlantiradi.

Muallifning fikricha, innovatsion faoliyat va venchurli investitsiyalash o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashning tashkiliy muammolarni yechish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

1. Texnologiyalarni targ'ib qilish markazlari yoki agentliklari deb nomlangan kichik yuqori texnologiyali korxonalarning shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi infratuzilmaning tarkibiy qismini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Venchur infratuzilmasi sektorlarini rivojlantirishdagi hududiy nomutanosiblik muammolarini yechish uchun Respublikada innovatsion faoliyat infratuzilmasi va venchur tadbirkorlikni rivojlantirishga oid hududiy dasturlarni ishlab chiqish (mavjudlarini qayta ko'rib chiqish) talab etiladi. Hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda infratuzilmaning barcha sektorlarini hamohang rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

2. Venchur investitsiyalar likvidligini oshirish uchun aksiyalar paketini sotish orqali venchur fondlarining investitsiyalangan korxonadan erkin chiqa olishi uchun sharoit yaratuvchi rivojlangan fond bozorini shakllantirish zarur.

3. Istiqbolli va jozibador loyihalar sonini oshirish uchun fundamental fan va ta'lim integratsion jarayonlarni rivojlantirish va faollashtirish, OTMlarning ilmiy muassasalar bilan yaqin hamkorligi, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda ta'lim tizimi olimlarining hissasini ta'minlash, ITM, tadqiqot laboratoriyalari va boshqalar faoliyati samaradorligini oshirish kabi masalalarni davlat darajasida yechish zarur.

4. Venchur investitsiyalash sohasidagi mutaxassislar taqchilligi muammosini OTM ta'lim dasturlariga venchur investitsiyalash sohasida mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan yo'nalishlarni kiritish evaziga yechish mumkin. Bu yo'nalishlar innovatsion, injenerlik va biznes-dissiplina kesishgan joyda bo'lishi kerak. Ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- zamonaviy ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash uchun mustahkam sharoitlar yaratish va ularni fan, ta'lim va yuqori texnologiyalar sohalariga biriktirilishi;
- fan, ta'lim va yuqori texnologiyalar sohasiga yoshlarning kelishi va jalb etilishini rag'batlantirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni yangilash mexanizmini yaratish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash, fan, oliy ta'lim, yuqori texnologiyalar davlat sektori kadrlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya choralari muvofiqlashtirish.

5. Tadbirkorlarning venchur madaniyati darajasini oshirishni ularning venchur moliyalashtirish to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish hisobiga amalga oshirish mumkin. Buning uchun turli xil kommunikativ maydonlar va tarmoqqa oid strukturalar – investorlarning professional assotsiatsiyalari va kengashlari, internet tarmog'idagi maxsus portallar va boshqalarni rivojlantirishni boshlash kerak.

6. Loyihalarni saralash jarayonini osonlashtirish uchun davlat darajasida venchur loyihalarni baholashning yagona metodikasini ishlab chiqish, shuningdek,

innovatsion loyihalar ekspertizasini amalga oshirish va ilmiy texnika sohasidagi korxonalar uchun maslahat xizmatlarini rivojlantirishga ko'maklashish zarur.

7. Venchur industriyasini axborot jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun axborot resurslari rivojlanishini rag'batlantirish, venchur tadbirkorligi mavzusini uni OAV hamda ijimoiy tarmoqlarda yoritish orqali ommalashtirish zarur.

XULOSA

1. Tadqiqotlarni umumlashtirish natijasida venchur kapitali sohasida quyidagi ta'riflar taklif etildi: venchur kapitali bu iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni jadallashtiruvchi, tez o'sish sur'atiga ega kichik yuqori texnologiyali kompaniyalarga yo'naltirilgan, shu bilan birgalikda yuqori risk darajasiga ega bo'lgan kapital. Bu yondashuv venchur kapitalining asosiy xususiyatlarini (risklilik, uzoq muddatlilik, innovatsion loyihalarga yo'nalganlik, moliyalashtirishning bo'linganligi, kiritilgan kapitalga kutilayotgan daromadning yuqori normasi) aniqlashtirish imkonini berdi, hamda nazariy jihatdan asoslanishga zaruriyat borligini ko'rsatdi.

2. Venchur kapitali tomonidan iqtisodiyotda bajariladigan funksiyalar xilma xilligi orasida (jamlovchi, innovatsion, integratsion, investitsion, turg'unlik, transformatsion, motivatsion, ijtimoiy) o'zaro yaqin aloqada bo'lgan innovatsion, motivatsion va transformatsion funksiyalar alohida ahamiyatga ega. Venchur kapitali innovatsion va ish faolligini tezlashtirishga yordam bergan holda, bu korxonalarni rivojlanish turini qayta yo'naltirishga, ilmiy-texnik faoliyatni faollashtirishga undash orqali ulkan motivatsion rol o'ynaydi. Natijada iqtisodiyotda innovatsion jarayonlari tezlashadi va uning innovatsion rivojlanish ssenariysiga o'tishi kuchayadi.

3. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida venchur kapitalining rolini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Minidarajada venchur kapitali texnologik bilimlar, boshqaruv resurslari va ma'lumotlardan foydalanish darajasining o'sishiga yordam beradi.

- Mikrodarajada venchur kapitali kichik va o'rta innovatsion korxonalar rivojlanishining manbasi sifatida namoyon bo'ladi.

- Mezodarajada venchur kapitali qator yuqori texnologiyali sohalarning rivojlanishini rag'batlantirish funksiyasini bajaradi.

- Makrodarajada venchur kapitali iqtisodiyotni strukturali modernizatsiyalash, uning rivojlanishning innovatsion ssenariysiga o'tishida asos bo'lib xizmat qiladi.

- Megadarajada venchur kapitali transmilliy venchur kapitali shaklini qabul qilgan holda bilim va texnologiyalarning millatlararo transferi jarayonini faollashtirgan holda va butun dunyo hamjamiyatining umumiy ilmiy-texnologik darajasini oshirgan holda global jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi.

4. Texnologiyalarni targ'ib qilish markazlari yoki agentliklari deb nomlangan kichik yuqori texnologiyali korxonalarning shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi infratuzilmaning tarkibiy qismini

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Venchur infratuzilmasi sektorlarini rivojlantirishdagi hududiy nomutanosiblik muammolarini yechish uchun Respublikada innovatsion faoliyat infratuzilmasi va venchur tadbirkorlikni rivojlantirishga oid hududiy dasturlarni ishlab chiqish (mavjudlarini qayta ko'rib chiqish) talab etiladi. Hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda infratuzilmaning barcha sektorlarini hamohang rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

5. Venchur investitsiyalash sohasidagi mutaxassislar taqchilligi muammosini OTM ta'lim dasturlariga venchur investitsiyalash sohasida mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan yo'nalishlarni kiritish evaziga yechish mumkin. Bu yo'nalishlar innovatsion, injenerlik va biznes- dissiplina kesishgan joyda bo'lishi kerak.

6. Venchur kapitali tarkibini ishlab chiqarish, moliyaviy, texnologik va axborot-ta'lim unsurlarini kiritish asosida takomillashtirish orqali uning innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sirini oshirish zarur.

7. Ilmiy va innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish mexanizmini respublikada tematik loyihalar bo'yicha davlat buyurtmasi hajmini ko'paytirish va uni venchurli moliyalashtirish asosida xususiy sektor faolligini jadallashtirish orqali takomillashtirish zarur.

8. Innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini texnopark va innovatsion markazlarda yaratilayotgan ilmiy-tadqiqot hamda innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sherikligi asosida moliyalashtirish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq.

9. Innovatsion g'oyalar va loyihalarni investitsiyalash samaradorligini oshirishga venchur fondlarni investitsion va pay fondlari shaklida tashkil etish, keyinchalik, ya'ni, innovatsion loyiha amalga oshirilgandan so'ng ishtirokchilar ulushini strategik investorlarga sotish orqali erishish maqsadga muvofiq.

10. Innovatsion jarayonlarni investitsiyalash samaradorligini oshirishga respublikada kichik innovatsion korxonalar va innovatsion klasterlarni davlat-xususiy sherikchiligi negizida «pinotsitoz» mexanizmi asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

ЭЪЛОН ҚИЛИНГАН ИШЛАР РЎЙХАТИ
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS

I бўлим (I часть; part I)

1. Cho'lliyev S.R. Venchur kapitali iqtisodiy kategoriya sifatida. Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. №2. – Toshkent, 2019. – B 138-141. (08.00.00; №11).

2. Cho'lliyev S.R. O'zbekistonda transformatsiyalashayotgan iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida venchur kapitalning o'rni. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, Toshkent, 2022. - B.297 -306. (08.00.00; №10).

3. Chulliyev S.R. Scientific-theoretical basis of researching the relationship between innovation processes and venture capital. Journal of Management Value & Ethics, August Special Issue. 23 Vol. 13 №.02. -India. 2023. -P 111-116. (08.00.00; №6 Osiyo mamlakatlari nashri)

4. Cho'lliyev S.R. Venchur kapitali innovatsion iqtisodiyotni moliyalashtirishning zamonaviy shakli sifatida // Kon-metallurgiya sohasini innovatsion rivojlantirish mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari to'plami. – Navoiy. 2018. -B 481.

5. Cho'lliyev S.R. O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda venchur kapitalining o'rni // Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni Respublika ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. O'zR FA, 2018. -B 273-275.

6. Чуллиев С.Р. Состояние венчурной инвестиции в Узбекистане. "Дистанционные возможности и достижения науки" Сборник тезисов научно-практических конференции. Киев. 2020 -С.69-70.

7. Cho'lliyev S.R. Yangi iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni moliyalashtirishda venchur kapitalining ahamiyati // Yangi iqtisodiyot rivojlanishi istiqbollari: global, mintaqaviy va milliy xususiyatlar Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent. 2020. – B 64-68.

8. Cho'lliyev S. Innovatsion-investitsion loyihalarni venchur kapitali hisobiga moliyalashtirishning xususiyatlari // O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi Respublika 14-ko'p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2020. – B 245-246.

9. Chulliyev S.R. The role of venture capital on the digital economy // Digital transformation of industry and services: trends, management, strategies" Xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari to'plami. -Bukhara. 2022. -B 191-194.

II bo'lim (II chast; part II)

10. Chulliyev S.R., Murodova S. Венчурный капитал, как фактор инновационной модернизации экономики // Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni Respublika ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. O'zR FA, 2018. -B 137-138.

11. Cho'lliyev S.R. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda venchur kapitalidan foydalanishning xorij tajribasi. Iqtisodiyotda innovatsiyalar jurnali. 4-son 3-jild. – Toshkent, 2020 – B 15-28 (CrossRef OAK № 35 baza)
12. Cho'lliyev S.R. O'zbekiston innovatsion rivojlanishida venchur investitsiyalashning mohiyati va ahamiyati // O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim mavzusidagi №1 ilmiy konferensiya materiallari to'plami. 2-qism. Farg'ona. 2020. – B 425-428.
13. Cho'lliyev S.R. Venchur biznesining nazariy asoslari // Raqamli iqtisodiyot: muammolar, yechim, istiqbollar. Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand. 2020. – B 200-201.
14. Chulliyev S.R. Venchur kapitali iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish omili sifatida. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Volume 1, Issue 10. – November, 2021. – rr. 596-602. (Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423).
15. Cho'lliyev S.R. O'zbekistonda venchur kapitalining shakllanishi. // Scientific progress. – Volume 2, Issue 7. 2021 -B 543-547.
16. Chulliyev S.R. Advantages and distinctive features of venture capital. SAARJ Journal on Banking Insurance Research (SJBIR) ISSN (online):2319-1422. Vol 9, Issue 3, May 2020. DOI 10.5958/2319-1422.2020.00011.9, -P 17-22. (SJIF 2020 = 7.126 OAK № 23 baza)
17. Муродова Н.К., Чуллиев С.Р. Состояние венчурной инвестиции в Узбекистане. Теория науки. 2020 №1, Мультидисциплинарный научно-практический журнал. Воронеж. 2020. -С 67-72.
18. Shodiev S.R, Chulliyev S.R, Negmatov S.K. The impact of venture capital on the digital economy. International Journal of Advanced Research in IT and Engineering ISSN: 2278-6244 Volume 10, Issue 12, December 2021. -P 126-135, 2021
19. Chulliyev S.R. The role of venture capital in the innovative development of a transformed economy. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 10, October 2021. - P 1746-1752 (SJIF 2021 = 7.492 OAK № 23 baza)
20. Chulliyev S.R. Venture capital as an economic category. European International Journal of multidisciplinary research and management studies (EIJMRMS) ISSN (online): 2750-8587. Vol. 02, Issue: 05 May 2022. <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-05-18> P -83-87. SJIF 2022 = 5,954 (SJIF OAK № 23 baza)